



XIVA XONLIGIDA MA'RIFATPARVARLIK XARAKATLARI.

Qayumov Ma'rufjon Usmonovich

*Namangan muhandislik texnologiya instituti,
tarix fanlari nomzodi
+998934805002*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyingi ma'rifatparvarlik xarakatlari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. Xonlikda bir necha yangi usul maktablarining ochilishi va ularning rivojlanish jarayoi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda tibbiyot soxasidagi o'zgarishlar ham kiritilgan. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida ma'rifatparvarlik xarakati vujudga kelganligi va Xiva xonligidagi ma'rifatparvarlik xarakatining o'ziga xos tomonlari yoritilgan. Ma'rifatparvarlarning faoliyati xon va uning ilg'or fikrli amaldorlari tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi va xomiylik qilinganligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Mustamlakachilik siyosati, Turkiston jadidlari, yangi usul maktablari, fan va madaniyat, ta'lim sifati, dunyoviy bilim.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В ХИВСКОМ ХАНСТВЕ.

Аннотация: В статье дается информация о просветительских движениях, имевших место после завоевания Хивинского ханства Российской империей. Приводятся сведения об открытии в ханстве нескольких новых научных школ и процессе их развития. В то же время произошли изменения в медицинской сфере. Освещены возникновение просветительского движения в Хивинском ханстве во второй половине XIX – начале XX века, а также отдельные аспекты просветительского движения в Хивинском ханстве. Утверждается, что деятельность просветителей поддерживалась и покровительствовалась ханом и его прогрессивными чиновниками.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Российская империя, колониальная политика, джадиды Туркестана, новометодные школы, наука и культура, качество образования, светские знания.

EDUCATIONAL MOVEMENT IN THE KHIV KHANATE.

Аннотация: The article provides information on the educational movements that took place after the conquest of the Khiva Khanate by the Russian Empire. It provides information on the opening of several new scientific schools in the Khanate and the process of their

development. At the same time, changes occurred in the medical field. The emergence of the educational movement in the Khiva Khanate in the second half of the 19th – early 20th century, as well as specific aspects of the educational movement in the Khiva Khanate are highlighted. It is argued that the activities of educators were supported and patronized by the khan and his progressive officials.

Key words: Khiva Khanate, Russian Empire, colonial policy, Jadids of Turkestan, new-method schools, science and culture, quality of education, secular knowledge.

KIRISH. Rossiyaning mustamlakachilik siyosati Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga juda katta zarar keltirganiga qaramay, uni to‘xtatib qololmadi. Mustamlakachilik davrida xonlikda sekinlik bilan bo‘lsada, san’at va adabiyot rivojlandi, qurilish va obodonchilik ishlari davom ettirildi. XX asr boshlarida Rossiyaga qaram bo‘lib qolgan butun O‘rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy vaziyat g‘oyat og‘ir bo‘lib, maxalliy axolining xuquqsizligi, taxqirlanishi xaddan oshgan, o‘lka mustamlakachilar uchun arzon ishchi kuchi va xom-ashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Ilg‘or ziyolilar o‘lka metropoliyasining xom-ashyo bazasiga aylanish bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabxalarda jaxon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezdilar. Vatan taqdiri xaqidagi bunday o‘ylar oxir oqibatda mustaqillik uchun kurashning o‘ziga xos yo‘llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya’ni kuchli siyosiy-xarbiy tayanchga ega bo‘lgan mustamlakachi xukumat bilan millat kelajagi yo‘lida bellashishning yagona yo‘li xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o‘z o‘rnida jadidchilik xarakatining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk isloxotchisi Ismoil G‘aspiralining faoliyati xam katta ta’sir ko‘rsatdi. U XX asr boshlarida Boqchasaroyda eski maktablarning murakkab o‘qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib, unda o‘zi dars bergan, darsliklar yozgan. Ismoil G‘aspirali ta’siri ostida dastlab Turkiston jadidlari yetakchilari M.Bexbudiy, A.Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Tavallo, A.Fitrat, Cho‘lpon, S.Ayniy va boshqalar Toshkent, Buxoro, Andijon, Samarqand, Qo‘qon, Namangan kabi shaxarlarda ana shunday yangi usul maktablarini ochdilar, darsliklar yaratdilar. Xiva xonligidagi jadidlar xam Turkistondagi taraqqiyparvarlar qatori xonlikda yangi usul maktablari ochish orqali xalqommasini siyosiy faolligini oshirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g‘oya eng ilg‘or qarashli jadid ziyolilarining fikrida bo‘lgani xolda mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma’rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqbolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislersiz tasavvur eta olmaganlar. Shu maqsad yo‘lida jadidlar Turkistondagi kabi Xiva xonligida xam yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun xarakat boshladilar.

Butun faoliyati rus ma'murlari tomonidan cheklangan va nazorat ostiga olingan Xiva xoni Said Muxammad Raximxon II ham ma'rifatparvar kishi bo'lib, san'at va adabiyotga xomiylik qildi, bir qancha bunyodkorlik ishlarini olib bordi. Xon o'zining yaqin mulozimlari bilan bir necha marta Moskva, Peterburg va boshqa shaharlarda bo'ldi. U yerdagi fan va madaniyat sohasidagi yangiliklarni ko'rib, ularni o'z mamlakatiga tatbiq etishga xarakat qildi. Bosqinchilar tomonidan 1873-yil olib ketilgan kutubxona qaytadan tiklandi, yangi qo'lyozmalar va bosma kitoblar bilan boyitildi. Xonlikda bir necha yangi usul maktablari ochildi. 1891-yil Xivada ilk bor feldsher-akusherlik shoxobchasi ish boshladi. Shuningdek, Said Muxammad Raximxon davrida Xivada ko'plab me'moriy qurilish ishlari olib borildi. Qurilishlarda an'anaviy Xiva me'moriy uslubidan tashqari Yevropaning qurilish san'atidagi muxandislik uslubidan keng foydalanildi. Said Muxammad Raximxon shoir va bastakor bo'lib, "Feruz" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Shu bilan birga u qattiqqo'l, davlat tizginini o'z qo'lida mahkam ushlagan hukmdor edi.

Xiva xonligida birinchi yangi usul maktabiga 1889 yil Orenburgdan kelgan Abdulg'aniboy Xusainov asos soldi [1]. 1904-yil 10-noyabrda yangi usul maktabi ochildi. Unda qozon shaxridagi yangi usul "Muxammadiya" madrasasini bitkazgan Xusayn Qo'shayev muallimlik qilgan. Bu maktabning obro'si tez orada oshib ketadi. Dastlab maktabga 14 nafar bola qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik o'quvchilar soni 55 taga yetadi. Shulardan 45 nafari o'zbek bolalari edi [2]. Yangi usul maktabiga xonlik axolisining qiziqishi ortib, bunday maktablar boshqa shaxarlarda ham ochildi. 1905-1907-yillar davomida Xiva xonligida 4 ta yangi usul maktabi ochildi. 1905-yilda Yangi Urganchda, 1906-yilda Xivada, keyinchalik Qo'ng'iro't va Gurlanda ham yangi usul maktablari tashkil etildi [3]. Ko'proq vaqtini bolalar tarbiyasiga bag'ishlovchi ayollar - onalarning ilmiy-ma'rifiy saviyasi bolani qay yo'sinda kamol topishiga o'zining ulkan ta'sirini ko'rsatadi. 1906-1907 o'quv yilida Xusayn Qo'shayev Urganchda qizlar maktabini tashkil etadi. Qizlar maktabining ochilishi, ko'pchilik ota-onalar tomonidan yaxshi kutib olindi. Xatto bu muxim voqyeadan xursand bo'lgan Said Muxammad Raximxon Urganchga borib, mazkur ta'lim-tarbiya ishlari bilan o'zi tanishadi va Xusayn Qo'shayevning boshlagan foydali tadbiri uchun uni qo'llab-quvvatlab, bosh-oyoq sarpo kiygizadi, xazina xisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qiladi. Mazkur maktabda Xusayn Qo'shayevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shayeva qizlarga bilim bera boshlaydi [4]. Xiva jadidlarining yetakchilari Bobo Oxun Salimov, Otajon Abdalov, Bekjon Raxmonov, Xudoybergan Devonov, Komil Xorazmiy kabi Xivaning ko'zga ko'ringan ziyolilari vakillari milliy maktablarni islox qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish dasturini kengaytirgan xolda yangi usul maktablari tashkil etish uchun faol xarakat qildilar. Ular ma'rifat xaqida bahslar uyushtirib, xalq orasida targ'ib-tashviq qilib, madaniy xayot rivojiga munosib xissa qo'shdilar. Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyatlariga xomiylik qilishda bosh vazir, taraqqiyparvar davlat arbobi Said Islomxo'ja (1870-1913) amalga oshirgan ishlar aloxida e'tiborga molik. U mamlakat taraqqiyoti yoshlarning bilimiga va ma'rifatiga bog'liq deb bilgan. Shuning uchun Islomxo'ja yoshlarga zamonaviy bilim asoslarini beruvchi yangi usul maktablarini tashkil etishga xarakat qildi. 1911-yil yanvar oyida Said

Islomxo‘ja Turkiston general-gubernatori xuzuridagi diplomatik amaldorga Xivada yangi usul maktabi ochmoqchiligini bildiradi. Bu xaqida diplomatik amaldor Turkiston general-gubernatoriga quyidagilarni ma‘lum qiladi: “Islomxo‘ja Xivada nafaqat xon va amaldorlarning farzandlari bilim oladigan, balki, boshqa xivalik yoshlar xam dunyoviy bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladigan maktab yoki gimnaziya ochish niyatida ekanligini menga ma‘lum qildi. U yoshlarga dunyoviy fanlar o‘qitilsa, mamlakat taraqqiyoti uchun foydali bo‘ladi, degan fikrda”[5]. 1911-yilda Islomxo‘ja tashabbusi bilan Xivada yangi usul maktabi ochiladi. Mazkur maktab uchun Said Islomxo‘ja Xiva markazida qo‘shqavatli qilib, Yevropacha usulda bino qurdiradi. Islomxo‘janing yangi usul maktabida 70 ta bola o‘qigan [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yangi usul maktablari nisbatan qisqa vaqtlarda o‘qish va yozishga o‘rgatilishi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb etardi. Xiva xalqining dunyoviy bilimlarni egallashga qiziqishi ma‘rifatparvarlarni targ‘ibotlari natijasida xam ortib bordi. 1912-yilga kelib To‘rtko‘l, Shovot, Xo‘jaelida xam yangi usul maktablari ochildi. Yangi usul maktablari sonining ortib borishi, ularning darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlash muammosini keltirib chiqardi. Darsliklar Istanbul, Qozon, Toshkentdan keltirilardi. Xiva jadidlari yangi usul maktablari ochish bilan birga, ular uchun darsliklar yaratish borasida xam katta ishlarni amalga oshirdilar. Bobo Oxun Salimov va Bekjon Raxmonov birgalikda “Alifbe”, “O‘qish kitobi” kabi darsliklarni yaratdilar[8]. Yangi usul maktablarida maxalliy tilda o‘qish, yozish, arifmetika, geografiya, Xivaning qisqacha tarixi, chizmachilik, iloxiyot fanlaridan dars berilgan. Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o‘qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o‘qishni davom ettirganlar. Yangi usul maktablari eski usul maktablaridan ta‘limning sifati bilan xam ajralib turgan. Xiva xonligida 1909-yildagi ma‘lumotga ko‘ra 1500 ta eski usuldagi maktablar mavjud bo‘lib, bu maktablarda 45 ming nafar bolalar ta‘lim olishgan[9]. Mazkur maktablarda ta‘lim jarayoni uch bosqichdan iborat edi. Birinchi bosqich quyi maktablar – ularda dastlabki savod chiqarish xamda namoz qoidalari, qur‘onning ayrim qismlarini yoddan qiroat qilish o‘rgatilgan. Ikkinchi bosqich o‘rta maktablar – bu yerda qur‘on va shariat qoidalari o‘qitilgan. Uchinchi bosqich oliy maktablar – Islom dinining falsafiy asoslari o‘qitilgan. Maktablarda o‘g‘il bolalar 5 yoshdan 15 yoshgacha, qizlar esa 6 yoshdan 10 yoshgacha o‘qiganlar. 7-8 yil davom etadigan o‘qish jarayonida dastlab bolalarga yozuv o‘rgatilgan, so‘ng birin-ketin “Xaftiyak”, “Chor kitob”, So‘fi Olloyorning “Sabotul-ojizin” kitobini o‘qitilgan. Ayrim xollarda o‘qituvchi o‘quvchining uyiga borib dars bergan yoki aksincha, o‘quvchi o‘qituvchining uyiga borib aloxida bilim olgan. Maktablarda o‘qish muddati aniq belgilanmagan edi. Maktabda o‘qishni tamomlaganlarning ozchilik qismi madrasada o‘qishni davom ettirganlar.

Xiva xonligida XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko‘plab madrasalar mavjud bo‘lib, ularda arab tili, tabiiy fanlar xamda ro‘za, xaj, dafn, namoz tartib qoidalari, savdo-sotiq qoidalari, nikoh qoidalari va boshqa davlat xamda diniy faoliyatda zarur bo‘lgan shariat qonun-qoidalari

o‘rgatilgan. Shuningdek, talabalarga arifmetika, geometriya fanlari o‘qitilgan [10]. Madrasalarda ham maktabdagi kabi o‘qish muddati aniq belgilanmagan bo‘lib, 10-20 yil davom etgan. XX asr boshlariga kelib bu maktab va madrasalar o‘zining o‘qitish dasturi xamda ta’lim sifati bilan zamon talablariga javob bera olmay qolgan edi. XX asr boshlarida Xiva xonligida rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon yangi usul maktablarining paydo bo‘lishi, mustamlakachi ma’murlarni g‘oyatda tashvishga sola boshladi. Chunki bu maktablar ilm, madaniyat taraqqiyotiga yo‘l ochar edi.

Musulmon o‘quv yurtlariga qarama-qarshi qo‘yilgan rus-tuzem maktablari axolining ozchilik qismi orasida bir oz e’tibor qozongan bo‘lishiga qaramay, ommaviy tus olmadi. Chorizm tomonidan g‘amxo‘rlik va xomiylik qilingan “rus-tuzem” maktablari maxalliy axoli o‘rtasida ommalashmay qoldi. 1886-yil Xivada rus-tuzem maktabi ochildi. 1887-yil Xiva xonligiga kelgan L.Ye. Dmitriyev-Kavkazskiy mazkur maktab xaqida yozar ekan, o‘quvchilar 11-15 yoshli bolalar bo‘lib, ularning barchasi sobiq bachchalar ekanligini ta’kidlab o‘tadi [11]. Shaxsan Turkiston general-gubernatori tomonidan mazkur maktabga o‘qituvchi Toshkent o‘qituvchilar seminariyasi bitiruvchilari orasidan tanlab olingan [12]. Imperiya xukumatining bu masalaga katta e’tibor berishining sababi tanlab olingan o‘qituvchi Xiva xonligi yoshlari orasidan ularga sodiq kishilarni tarbiyalashi lozim edi. Biroq maxalliy axoli rus-tuzem maktabida farzandini o‘qitishni istamagani uchun mazkur maktab bir muncha muddatdan so‘ng o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi [13]. Shundan so‘ng xon xazinasini xisobidan 10 nafar xivalik bolalar Petro-Aleksandrovska shaxar o‘quv yurtiga jo‘natiladigan bo‘ldi. Bu yerda maxalliy axoli farzandlari rus o‘qituvchilari raxbarligida va nazorati ostida rus bolalari bilan birgalikda yashab, o‘qirdilar. Keyinroq xivalik ota-onalar bu o‘quv yurtida Islom dini qonunlari va maxalliy tillar o‘qitilmasligidan norozi bo‘lib, farzandlarini Petro-Aleksandrovska yuborishdan bosh tortdilar [14]. Maxalliy axoli xaqqoniy ravishda ularni o‘z milliy manfaatlariga, ko‘p asrlik an’anaviy, milliy qadriyatlar va kundalik turmush sharoitiga javob bermaydi deb xisobladi. Yangi usul maktablari esa o‘zining keng ko‘lamlilik, o‘qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustun bo‘lib, maxalliy axoli ishonchini qozondi va rus-tuzem maktablariga nisbatan yerli xalq xayotiga tezroq kirib bordi.

XULOSA.

Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Xiva xonligida xam Turkiston o‘lkasi xamda Buxoro amirligidagi kabi ma’rifatparvarlik xarakati vujudga keldi. Xiva xonligidagi ma’rifatparvarlik xarakatining o‘ziga xos tomonlaridan biri shu bo‘ldiki, bu yerda ma’rifatparvarlar Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligida bo‘lganidek, xukumat tomonidan ta’qib ostiga olinmadi. Aksincha, ma’rifatparvarlarning faoliyati xon va uning ilg‘or fikrli amaldorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, xomiylik qilindi. Xiva taraqqiyparvarlari maorif sohasidagi asosiy e’tiborni yoshlarga zamonaviy bilimlar berishga qaratdilar va ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari zoye ketmadi. Diniy va dunyoviy fanlarni qo‘shib o‘qitishga asoslangan yangi usul maktablari Xiva xonligida madaniyat va maorif taraqqiyotida ijobiy

axamiyat kasb etdi. Yangi usul maktablarida adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabxalarida nom taratgan arboblarning yetishib chiqdilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Зиманов С.З. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. - Алма-Ата: Наука Каз ССР, 1976. С. 53.
2. Хоразм тарихи. - Урганч, 1997. Б. 374.
3. Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX - начале XX века. - Т.: Фан, 1972. С. 81.
4. Рахим Д., Матрасул Ш. Феруз. Шох ва шоир қисмати. - Т., 1991. Б. 101.
5. О‘zR MDA, I-2 fond, 1-ro‘yxat, 291-ish, 186-varaq.
6. О‘zR MDA, 2-fond, 1-ro‘yxat, 289-ish, 176-varaq.
7. Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. - Т.: Фан, 1972. С. 81.
8. Йўлдошев Ж., Хасанов С. Жадид тарихшунослиги асослари. // Халқ таълими. - 1992. - № 11-12. Б. 34.
9. О‘zR MDA, I-125-fond, 1-ro‘yxat, 527-ish, 70-varaq.
10. Гиршфельд В., Галкин М. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса... С. 96-98.
11. Дмитриев-Кавказский Л.Е. По Средней Азии. - Спб., 1894. С. 70.
12. О‘zR MDA, I-125 fond, 1-ro‘yxat, 269-ish, 279-varaq.
13. О‘zR MDA, I-2 fond, 1-ro‘yxat, 291-ish, 186-varaq.
14. О‘zR MDA, I-2 fond, 1-ro‘yxat, 291-ish, 186-varaq.